



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FAKTORING OPERATSIYALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

DEVELOPMENT TRENDS OF FACTORING OPERATIONS IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN

¹Usmonov Abrorxon
Alixon o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.
E-mail: a_usmonov@yahoo.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarida faktoring operatsiyalarining rivojlanish tendensiyalari, ularning kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishdagi o'rni hamda savdo moliyalashtirish instrumenti sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda faktoring xizmatlarining shakllanishi, tuzilmasi va rivojlanish dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Shuningdek, mahalliy va xalqaro faktoring, reversiv faktoring hamda supply chain finance mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Natijalar raqamli bank xizmatlari rivoji bilan onlayn faktoring hajmi sezilarli oshganini ko'rsatadi. Faktoring kichik va o'rta biznesning aylanma mablag'larini tezlashtirish, debitorlik qarzdorliklarini moliyalashtirish va eksportni qo'llab-quvvatlashda muhim vositaga aylanmoqda. Maqolada ushbu yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article analyzes the development trends of factoring operations in commercial banks of Uzbekistan, highlighting their role in financing small and medium-sized enterprises and their importance as a trade finance instrument. The study examines the formation, structure, and dynamics of factoring services in the banking sector based on statistical data. It also explores domestic and international factoring, reverse factoring, and supply chain finance mechanisms. The results show that digital banking has significantly increased the volume of online factoring operations in recent years. Factoring is becoming an essential tool for accelerating working capital, financing receivables, and supporting export activities. The paper also proposes institutional and economic recommendations for further improvement of factoring operations in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ faktoring, tijorat banklari, kichik va o'rta biznes, reversiv faktoring, xalqaro faktoring, supply chain finance, savdo moliyalashtirish, bank xizmatlari, debitorlik qarzdorligi.
❖ factoring, commercial banks, small and medium-sized enterprises, reverse factoring, international factoring, supply chain finance, trade finance, banking services, accounts receivable.

Kirish.

So'nggi yillarda jahon bank amaliyotida faktoring operatsiyalari savdo moliyalashtirishning muhim

instrumentlaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda. Ushbu mexanizm korxonalarining debitorlik qarzdorliklarini muddatidan oldin moliyalashtirish orqali

aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtiradi hamda kichik va o'rta biznes subyektlarining likvidligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, faktoring xizmatlari tijorat banklari uchun foizsiz daromad manbai sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda bank tizimini modernizatsiya qilish jarayonida faktoring operatsiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda tijorat banklari tomonidan onlayn faktoring, reversiv faktoring hamda supply chain finance kabi zamonaviy moliyalashtirish instrumentlari joriy etilmoqda. Mazkur jarayon faktoring xizmatlari hajmining oshishiga hamda kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston tijorat banklarida faktoring operatsiyalarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish hamda ularning kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishdagi rolini baholashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Kichik va o'rta biznes moliyalashtirishida "alternativ" moliyaviy yechimdan "strategik" instrument darajasiga ko'tarilayotganini ko'rsatadi. Tadqiqotlar, ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari kuchaygan sharoitda debitorlik qarzdorligini moliyalashtirish (accounts receivable finance) bo'yicha bank mahsulotlarining texnologik platformalar orqali tezroq, arzonroq va nazorat qilinadigan shaklga o'tishini qayd etadi. Ta'minot zanjirini moliyalashtirish tizimi "ta'minot zanjiri ichidagi moliyaviy oqimlarni integratsiya qilish" orqali xaridor-yetkazib beruvchi munosabatlarida likvidlik muammosini yumshatishi, banklar va logistika xizmatlari uchun yangi biznes yo'nalishlarini ochishi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuvda ta'minot zanjirini moliyalashtirish tizimi bitimlari zanjir bo'ylab "win-win" natija beradi: yetkazib beruvchi tezkor pul oqimini oladi, xaridor to'lov intizomini saqlaydi, bank

esa riskni zanjirdagi kuchli kontragentlar va hujjat oqimlari orqali boshqaradi [1].

Ta'minot zanjirini moliyalashtirish tizimi samaradorligi ko'p jihatdan raqamli transformatsiya bilan bog'liqligini ko'rsatadi: korxonaning digital transformatsiyasi axborot assimetriyasini pasaytirishi, natijada supply chain finance ko'rsatkichlari yaxshilanishi qayd etiladi. Ushbu natija kichik va o'rta biznes moliyalashtirishida "ma'lumot sifati" va "kuzatuv (monitoring) xarajatlari" muammosi asosiy to'siq ekanini, raqamlashtirish esa shu to'siqni yumshatishini anglatadi [2].

Raqamli texnologiyalar asosida ta'minot zanjirini moliyalashtirish tizimi amaliyoti kichik va o'rta biznes ning moliyalashtirish ko'lamini kengaytirishi va moliyalashtirishga kirish imkoniyatini oshirishi ta'kidlanadi. Bu yondashuv bank mahsulotlarida raqamli scoring, e-invoicing, real vaqt rejimida monitoring kabi elementlar ta'minot zanjirini moliyalashtirish tizimining "riskni nazorat qilish + masshtablash" salohiyatini kuchaytirishini ko'rsatadi [3].


Reversiv faktoring ta'minot zanjirini moliyalashtirish tizimining "markaziy" instrumentlaridan biri sifatida izohlanadi. Reversiv faktoring bank krediti bilan bir qatorda kichik va o'rta biznesni (xususan, ta'minot zanjiridagi yetkazib beruvchilarni) moliyalashtirishda alternativ yechim sifatida ko'rib chiqiladi va davlat qo'llab-quvvatlovi, rag'bat-jarima mexanizmlari kabi omillar ostida strategik tanlovlar tahlil qilinadi. Bunday natijalar dissertatsiya kontekstida shuni anglatadiki: reversiv faktoringda riskning muhim qismi zanjirdagi "kuchli" xaridor reputatsiyasi va tasdiqlangan hisob-fakturalar orqali kamayadi, kichik va o'rta biznes esa garov talabidan ko'ra "savdo oqimi"ga tayanadigan moliyalashtirishga yaqinlashadi [4].

Eksportga yo'naltirilgan kichik va o'rta biznes subyektlari uchun xalqaro savdo operatsiyalarini amalga oshirish uchun korxonalar tomonidan talab etilayotgan

moliyaviy resurslar hajmi bilan banklar va moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etilayotgan savdo moliyalashtirish hajmi o'rtasidagi tafovut (trade finance "gap") masalasi so'nggi yillarda alohida yo'nalish sifatida kuchaygan. 2024-yildagi tizimli adabiyotlar sharhi eksportga yo'naltirilgan kichik va o'rta biznes subyektlar uchun savdo moliyalashtirishga kirishdagi omillar va "gap"ni yopish choralarini umumlashtiradi; bunda hujjat talablari, risk baholash, banklarning ehtiyotkor siyosati kabi institutsional muammolar ajratib ko'rsatiladi. 2025-yilda siyosatga yo'naltirilgan ishlar ham rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda eksport va import operatsiyalarini moliyalashtirish uchun taqdim etiladigan moliyaviy instrumentlar majmuasi (trade finance) yetishmovchiligi kichik va o'rta biznes subyektlari eksport salohiyatini cheklashi, siyosiy va intervensiya choralarining ahamiyatini ta'kidlash orqali xalqaro faktoringning eksportga xizmat qiluvchi instrument sifatidagi rolini kuchaytiradi [5].

Factoring siyosati va tartibga solish islohotlari (SME factoring policies) bozor rivojiga bevosita ta'sir qilishi ko'rsatiladi; huquqiy aniqlik (assignments, registrars), ijro mexanizmlari, kredit axborot infratuzilmasi factoring bozorining kengayishi uchun zarur shart sifatida talqin etiladi. Bu yo'nalish O'zbekiston sharoitida xalqaro faktoringni kengaytirish uchun normativ-huquqiy muhit, talab huquqini o'tkazish amaliyoti, sud va ijro tizimi va raqamli registrars masalasini ilmiy asosda ko'tarish zarurligini ko'rsatadi [6].

2026-yilda Platforma asosidagi raqamli ta'minot zanjiri moliyalashtirishi bo'yicha ishlar "cross-border e-commerce" (onlayn tarzda mahsulot yoki xizmatlarni bir davlatdan boshqa davlatga sotish yoki sotib olish jarayoni)- ta'minot zanjirlarida pricing va risk nazoratini optimallashtirish masalasini ko'taradi. Bu yo'nalish xalqaro faktoringni raqamli savdo kanallari bilan bog'lash, platforma orqali ma'lumotlar yig'ilishi va risk nazoratining avtomatlashtirilishi mumkinligini anglatadi [7].



1-rasm. Ta'minot zanjiri mexanizmi sexamasi

Ta'minot zanjirida faktoring ikki yo'nalishda qo'llanilishi mumkin. Birinchi yo'nalish - xaridni moliyalashtirish. Bunda ko'p sonli kichik yetkazib beruvchilar yirik korxonaga tovar yoki xizmat yetkazib beradi,

lekin to'lovni kech oladi. Faktoring orqali ushbu debitor qarzlari darhol pulga aylantiriladi va yetkazib beruvchilar o'z faoliyatini uzluksiz davom ettirish imkoniga ega bo'ladi. Ikkinchi yo'nalish - sotuvni moliyalashtirish. Bu holatda

tayanch korxonalar tovarni ulgurji yoki chakana sotuvchilarga muddatli to'lov sharti bilan sotadi va o'z navbatida ushbu qarzlarni faktoring kompaniyasiga topshirib, darhol pul tushumiga ega bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishda analitik taqqoslash, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslama tahlil ma'lumotlarni guruhlash, ularni bir-biri bilan solishtirish yo'li bilan statistik qayta ishlash usuli, miqdor va sifat ko'rsatkichlar hisoblash kabi usullardan foydalanildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirishda tijorat banklari tomonidan qo'llanilayotgan instrumentlar tarkibida faktoring xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyotida faktoring kichik biznesning aylanma kapital muammosini hal etuvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, O'zbekiston bank amaliyotida ushbu xizmatdan foydalanish

darajasi uzoq vaqt davomida past bo'lib kelgan. So'nggi yillarda raqamli platformalar, elektron hisob-faktura tizimi va savdo operatsiyalarining shaffoflashuvi natijasida faktoring xizmatlarining amaliy qo'llanishi sezilarli darajada faollasha boshladi.

Biznes vakillarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini faktoring xizmati orqali moliyaviy ta'minlashining ortishi natijasida 2024-yilda faktoring xizmatlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich dekabr oyida 630 mlrd. so'mga yetgan bo'lsa, joriy yilning iyun, iyul oylarida 1,1 trln. so'mdan va sentabr oyida 849 mlrd. so'm miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatildi (2-rasmga qarang).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-109-sonli Farmoni imzolanganidan keyin, kredit tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga 2024-yilning so'nggi 4 oyi hamda 2025-yilning yanvar-sentyabr oylari davomida jami 7,8 trln. so'm miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatildi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi kredit tashkilotlari tomonidan 2024-yil va 2025-yil yanvar-sentabr oylarida faktoring xizmatlarining dinamikasi (mlrd. so'mda)¹

2025-yilning 9 oyi davomida tadbirkorlik subyektlariga davlat ulushi mavjud tijorat banklari tomonidan jami 3,4 trln. so'm


(56 foiz), xususiylar tomonidan jami 2,7 trln. so'm (44 foiz) miqdorida faktoring xizmatlari taqdim qilingan. Xususan, eng ko'p

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

faktoring operatsiyalari davlat ulushi mavjud tijorat banklarida, Asaka bank (1 trln. so‘m shundan, elektron platforma orqali 508 mlrd. so‘m), O‘zsanoatqurilishbank (735 mlrd. so‘m, 695 mlrd. so‘m), O‘zmilliybank (659 mlrd. so‘m, 450 mlrd. so‘m) hissalariga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, xususiy banklar orasida Kapitalbank – 1,2 trln. so‘m (31 mlrd. so‘m), Hamkorbank – 564 mlrd. so‘m (246 mlrd.

so‘m) va Asia Alliance bank – 252 mlrd. so‘m (143 mlrd. so‘m) bilan faktoring xizmati ko‘rsatishda yetakchilik qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi mikromoliya tashkilotlari tomonidan 2025-yilning 9-oy davomida jami 453 mlrd. so‘mlik debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi kredit tashkilotlari kesimida 2025-yilning 9 oyida ko‘rsatilgan faktoring xizmatlari miqdori (mlrd. so‘mda)²

Kredit tashkilotlari kesimidagi tahlil faktoring xizmatlarining asosan yirik davlat banklari hissasiga to‘g‘ri kelayotganini ko‘rsatadi. Xususan, Asaka bank, O‘zmilliybank va O‘zsanoatqurilishbank faktoring xizmatlari hajmi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallagan. Bu banklarda faktoring operatsiyalari hajmining yuqoriligi ularning savdo operatsiyalarini moliyalashtirishda ushbu instrumentdan faol foydalanayotganini bildiradi.

Alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan jihat – elektron platformalar orqali amalga oshirilayotgan faktoring xizmatlari ulushining oshib borayotganidir. O‘zmilliybank va O‘zsanoatqurilishbankda faktoring operatsiyalarining katta qismi aynan raqamli platformalar orqali amalga oshirilgani kuzatiladi. Kapital bank, Anorbank va Asia

Alliance bank kabi xususiy va raqamli banklarda esa faktoring to‘liq elektron shaklda yo‘lga qo‘yilgan. Bu holat faktoringni an‘anaviy kreditlash mexanizmidan farqli ravishda tezkor, shaffof va avtomatlashtirilgan moliyalashtirish instrumentiga aylantirmoqda.

Xulosa va takliflar.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari O‘zbekiston tijorat banklarida faktoring operatsiyalari so‘nggi yillarda bank xizmatlari tarkibida tobora muhim o‘rin egallab borayotganini ko‘rsatadi. Faktoring mexanizmi kichik va o‘rta biznes subyektlarining aylanma mablag‘larini tezkor moliyalashtirish, debitorlik qarzdorliklarini pul oqimiga aylantirish hamda savdo operatsiyalarini qo‘llab-quvvatlashda samarali moliyaviy instrument sifatida shakllanmoqda. Xususan,

²O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

tadqiqot natijalari faktoring xizmatlari hajmi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshganini va banklar tomonidan ushbu xizmatni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilayotganini tasdiqlaydi.

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, 2024-2025-yillarda O'zbekiston bank sektorida faktoring operatsiyalari hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Davlat ulushi mavjud tijorat banklari, xususan Asaka bank, O'zmilliybank va O'zsanoatqurilishbank faktoring xizmatlari hajmi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Shu bilan birga, xususiy banklar va mikromoliya tashkilotlari ham faktoring xizmatlari bozorida faol ishtirok

etib, ushbu moliyaviy instrumentning raqobat muhitida rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Faktoring operatsiyalarining rivojlanishi O'zbekiston bank tizimida savdo moliyalashtirish instrumentlarining diversifikatsiyasini ta'minlab, kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari tomonidan faktoring xizmatlarini kengaytirish va raqamli moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda eksport salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 12.08.2024-yildagi PF-109-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. www.cbu.uz
3. Asifulla A., Basha H.M. *Supply Chain Finance in Small and Medium Enterprises: A Conceptual Analysis // Journal of Informatics Education and Research.* – 2023. – Vol. 3, No. 2. – ISSN: 1526-4726. <https://www.researchgate.net/publication/376434836>
4. Kasim E.S. *Digital Transformation of SMEs and Supply Chain Finance: The Mediating Role of Information Asymmetry // Malaysian Journal of Social Sciences and Humanities (MJSSH).* – 2025. – Vol. 10, No. 5. – DOI: 10.47405/mjssh.v10i5.3405.
5. He S., Liu Z. *The Impact of Digital Supply Chain Finance on Reducing Financing Constraints of SMEs: Evidence from SRDI Enterprises in China // Science.* – 2025.
6. Zhang Z., Shen W., Zhang X. *Green Financing for SMEs in Supply Chains: Reverse Factoring or Bank Credit under Incentive and Penalty Mechanisms // Managerial and Decision Economics.* – 2026. – DOI: 10.1002/mde.70085.
7. Jayaweera A., Bhaumik A., Liyanage C. *Bridging the Trade Finance Gap for Export-Oriented SMEs: A Systematic Literature Review // International Journal of Business, Economics and Management.* – 2024. – Vol. 11. – pp. 57-72. – DOI: 10.18488/62.v11i3.3972.
8. Kashyap A., Lunagariya S. *Evolution of Trade Finance: A Comparative Analysis of Regulatory Reforms in Factoring Policies for Small Businesses in India and China // Otoritas: Jurnal Ilmu Pemerintahan.* – 2023. – Vol. 13. – pp. 469-485. – DOI: 10.26618/ojip.v13i3.11397.
9. Qin L., Ma X., Liu D., Xu Y. *Platform-Based Digital Supply Chain Finance: Optimizing Pricing and Risk Management in Cross-Border E-Commerce Supply Chains // Journal of Global Information Management.* – 2026. – Vol. 33. – pp. 1-28. – DOI: 10.4018/JGIM.394257.